

OILAVIY MUNOSABATLARDA TA’LIM-TARBIYANING O’RNI

**Andijon davlat pedagogika instituti talabasi
Isroilova Madinabonu Nosirjon qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada oiladagi o‘zaro munosabatlar, bola tarbiyasida ota-ona tomonidan beriladigan ta’lim-tarbiyaning o‘rni, sog‘lom oilaviy muhit yaratish uchun nimalarga ahamiyat berish kerakligi to‘g‘risida fikrlar bayon etilgan. Kattalar tomonidan yosh oilani barpo etishda namuna sifatida ko‘rsatilayotgan ta’lim-tarbiya usullari hamda yangi qurilgan oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qilinayotgan yordam va imkoniyatlarning yosh oilalar mustahkamlanishidagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy munosabat, oilaviy muhit, psixologik iqlim, axborot xavfsizligi, ta’lim va tarbiya.

Oila jamiyatning bir bo‘lagi hisoblanadi. Jamiyat oilalardan tarkib topgan. Oiladagi muhit qanchalik sog‘lom bo‘lsa, o‘sha oila mustahkam qo‘rg‘on misolidir. Ajdodlar tomonidan boy merosni, qadriyatlarini, oila to‘g‘risida aytilgan o‘git-u pand nasihatlarini yosh avlodga singdirish, yosh avlod vakillari tomonidan bularni o‘zlashtirish va boyitish har doim ham oson bo‘lavermaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tishim kerakki, Abdulla Qodiriyning "Moziyga qaytib ish ko‘rmoq xayrlidir" degan iborasi bejiz emas. Albatta, o‘tmish to‘fonlari-yu, asrlar silsilasida shakllanib kelgan urf-odatlar asosida qurilgan oilada va aynan shular negizida shakllangan oilaviy muhitda tarbiya ko‘rayotgan bolalar, nafaqat oilasi uchun balkim jamiyat uchun ham kerakli shaxslardir. "Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta‘minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir" [1, 10].

Darhaqiqat, oila ma‘naviyat, ta’lim va tarbiya o‘chog‘i bo‘lganligi uchun ham har bir ota-ona farzandiga ham diniy, ham dunyoviy bilim olishi uchun shart-sharoit yaratib berishi lozim. Bu bizning bosh qomusimiz hisoblanmish Konstitutsiyaning bir nechta moddalarida ham ko‘rsatib o‘tilgan. Tarbiya va ta’lim birinchi oilada shakllanadi va bular uzluksiz davom etadi. Ota-ona faqat farzandi uchun shart-sharoit yaratibgina qolmasdan, ular bilan birgalikda dars tayyorlashi va ilm olishida ko‘maklashishi ham kerak. Aynan ota-ona tomonidan berilgan qiziqish motivi bolaning ilm olishi uchun ham samarali bo‘ladi. O‘zbekistonda 180 mingdan ortiq nikoh qayd etilgan, bo‘lsa, shulardan 40%i yosh oilalarni tashkil qiladi.

Oilalar hayot siklidan kelib chiqqan holda 4 turga bo‘linadi:

1. Juda yosh oila – turmush qurgandan 4 yil mobaynida;
2. Yosh oila – 5 yildan 9 yilgacha;
3. O‘rta oilaviy hayot munosabati – 10 yildan 19 yilgacha;
4. Katta oilaviy hayot – 20 yil va undan ortiq yillarni qamrab oladi [2]

"Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma‘lum bir vazifani bajaradi. Bular: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulyativ (boshqaruv)" [1, 47].

Farzand oilada olgan tarbiyasi bilan ijtimoiylashuv jarayoniga kirishar ekan, bolada muomala madaniyati shakllanadi. Oilada ota va onaning o‘z rollari mavjud. Ota farzandiga nisbatan ijtimoiy ya‘ni tashqi muhitda o‘zini tutish madaniyatini shakllanishi uchun mas‘ul bo‘lish bilan birga iqtisodiy ta‘minotchi hamdir. Ona esa axloqiy me‘yorlar, etik, estetik madaniyat va odob mezonlari doirasida muomala qilish qonun-qoidalarini bilan birga, diniy jihatdan ta’lim berish kerak. Buning uchun esa qiz farzand ham oila qurishdan oldin diniy va dunyoviy bilimlarni egallashi kerak. Burhoniddin Marg‘inoniy o‘zining "Hidoya" asarida oila va nikoh masalasida juda katta ma‘naviy-tarbiyaviy fikrlar yozib ketgan. Unda nikoh ostonasida turgan yoshlar iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy va aqliy jihatdan mumkin qadar teng bo‘lishligi aytib o‘tilgan. Oilada farzand tarbiyasida, ayniqsa, ota bosh rolni egallaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining "Padarkush" dramasi aynan oiladagi ilmsizlik va tarbiyaning asl mohiyatini ochib bergan. Asarda ota moddiy ehtiyojlarini ko‘zlab, o‘z ehtiyojlarini ma‘naviy saviya-yu ilmdan ustun qo‘yadi va asar so‘ngida ilmsizlikdan jabr chekib, o‘z aybiga iqrar bo‘ladi. Ilmsizlik, oqni qoradan ajrata olmaslik oqibatida farzand betayinlar, mayishatparastlar,

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

nafsini jilovlay olmaydiganlar qurshovida qolib, o‘z umriga zomin bo‘ladi. Asarda aynan ota farzand tarbiyasiga e‘tibor bermaydi. Ammo hozir ham xasislik qilib, farzandi uchun ilm yo‘lida mablag‘ sarflamayotganlar ham kam emas, lekin to‘qlikka sho‘xlik qilib, otasining davrida davron surib yurganlar, berilgan imkoniyatdan unumli foydalanmayotganlar ham oramizda uchrab turibdi. Ilm yo‘lida ilm nuri bilan ma’naviy dunyosini boyitayotganlar, zerokim, u dunyo-yu bu dunyo saodatda bo‘lurlar.

Oilada birinchi o‘rinda muhabbat, ishonch va samimiy munosabat bo‘lishi kerak. Farzand tarbiyasida ota-ona hamfikrlikda ish olib borishi lozim. Qiz farzand oilada ta’lim-tarbiya olayotganda, avvalo, muhitga qarab, tarbiyasi shakllanadi. Ona qiz tarbiyasi uchun tayyor namuna va o‘rnakdir. Aynan onasiga o‘xshab uy ishlarida shu bilan birga estetik didini shakllantirsa, otasi siymosida kelajakda qanday inson bilan turmush qurishi haqida birlamchi ta’limni oladi. O‘g‘il farzand ham onasining tutumi va turmushdagi vazifalarini ko‘rib, qanday qizga uylanish haqida tarbiya topsa, otasiga qarab, oilada yetakchi bo‘lish, iqtisodiy jihatdan ta’minotchi, kuch-qudrat sohibi bo‘lish ta’limini o‘zining ongiga singdirib boradi.

Yoshlar ta’lim olishi uchun maktab, umumta’lim muassasalari bepul tarzda o‘quv mashg‘ulotlari o‘tilsa, shu maktab tizimida ustozlardan ta’lim olsa, parallel ravishda ota-onasi tomonidan oilaviy muhitda mustahkamlanib boradi. Ilm-fan rivojlanganligi, urbanizatsiyalashuv jarayoni, ijtimoiylashuv jadal sur‘atda keskin ortib borishi o‘z navbatida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib keladi. Muhitda farzand qanchalik o‘zini erkin tutib oila a‘zolari oldida o‘zining fikrini to‘liq bayon etsa, aynan ijtimoiy muhitda ham o‘zini shu tarbiyasini aks ettiradi. Ba’zi oilalarda juda kam muloqot, e‘tiborsizlik natijasida farzand tarbiyasida tub burilishlar yuzaga kelmoqda. Oiladagi ta’lim-tarbiya, odob-axloq, turmush tarzi tutumi haqida buyuk allomalar Yusuf Xos Hojib "Qutadg‘u bilig" asari, Kaykovusning "Qobusnoma", "Odobnoma" asari, Z.M.Boburning "Boburnoma" asarlarida keng fikrlar nasihatlar berib o‘tishgan.

Oila institutlarining mustahkamligi ijtimoiylashuv jarayonlarida ham o‘z aksini topadi.

"Tarbiya tizimining milliy xususiyatlari:

- milliy tarix va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarda milliy udumlar, an‘analalar, urf-odatlar, diniy marosimlardan foydalanish;
- milliy madaniyat jahon madaniyatining bir bo‘lagi ekanligi tushunchasini shakllantirish" [4, 6].

Milliy qadriyatlar hamohangligida bolaga namuna, ibrat tarzida ota-ona tomonidan tarbiya berilsa, farzandda umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi shakllanadi. Farzand tarbiyasida bobo-buvilarning ham o‘rni beqiyos, ammo ayni paytda oilalar nuklearlashib ketayotganligi boisidan ham ba’zi oila farzandlari tarbiyasida xulqiy og‘ishlar, nuqsoniy kamchiliklar uchrab turibdi. Oilalarda farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri bu moddiy mablag‘ yetishmaslik masalasi. Chunki ayni damda bo‘sh ish o‘rni kam, oylik maosh summasi oz, moddiy ehtiyojlar esa yildan-yilga keskin tarzda ortib bormoqda. Tarbiya jarayonida ota-ona barcha farzandlariga teng miqdorda e‘tibor berishi lozim. Kingadur ko‘proq e‘tibor berish bu bola psixikasida salbiy og‘ishlarni keltirib chiqaradi. Ammo ilm-fan taraqqiy etgan zamonda ijtimoiy tarmoqlar va sun‘iy intellekt o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Yoshlarni axloqiy buzilishi, kattalarga hurmatsizlik qilishi, bu oila muhitida ijtimoiy tarmoqning o‘rni va ahamiyati qay darajada yuqori ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

Rivojlanayotgan O‘zbekistonda ta’limni tubdan isloh etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlar uchun ta’lim jarayonida: agar magistratura bosqichiga o‘qishda kirsam, hech qanday kontraktsiz, davlat byudjetidan qoplab berilmoqda, bakalavriat bosqichi talabalari uchun esa foizsiz ta’lim kreditlari berilmoqda. Yosh oilalar, boquvchisini yo‘qotgan, yolg‘iz ona, ehtiyojmand oilalar uchun moddiy yordamlar ko‘rsatilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, oilaviy muhitda sog‘lom fikrli farzand tarbiyalash uchun ota-ona birgalikda harakat qilishi, bolani yoshligidan boshlab halollik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik, kattaga hurmat ko‘rsatish, kichiklarga izzatda bo‘lish fazilatlarini bilan uning ma’naviy dunyosini boyitib borishi kerak. Ijobiy kayfiyat hukm surgan oilada ta’lim olish istagi notinch oiladagi farzandlar bilan olib qaralsa, ilm olishga istagi yuqori bo‘ladi. Ota-ona munosabati samimiy, ahillik va yuqori o‘lchov mezonlari doirasida bolsa, farzandda ham shu xislatlar shakllanadi. "Qush uyasida ko‘rganini qiladi", deydilar va ushbu maqol ham bejizga aytilmagan. Oilada farzand ta’lim

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

olsa, kelgusidagi o‘zi qurgan oilasida ham sog‘lom, ijtimoiy muhitni yarata oladi. Tarbiya jarayonida namuna metodidan foydalanib, farzandga ta’lim berilsa, bola buni ongida bir umr saqlab qoladi. Farzand tarbiyasida birinchi o‘rinda ona turadi. Shuning uchun turmush o‘rtoq tanlashdan oldin erkak o‘sha qizni qanday muhitda tarbiya topgani, diniy va dunyoviy bilimlardan boxarbarligi, oilaviy ahvoli, hurmat qilish darajasi qay yo‘sindaligi, muomala madaniyati to‘g‘ri shakllanganligini inobatga olgan holda oila quradi. Notinch oilalarning farzandlari psixikasida salbiy o‘y-xayollar, stress va suidsitga moyillik holatlari mavjud. Bunday oila vakillari bilan vaqtida shug‘ullanib, oila muhiti yaxshilanmasa, jamiyat uchun ham oilasi uchun ham nafi yo‘q kimsalar yetishib chiqadi. Ta’limdan tashqari oilada farzandning sog‘lig‘iga ham e’tibor berish kerak. Sog‘lom turmush tarziga amal qilish darkor. Muntazam sport bilan shug‘ullanish asnosida farzand jismoniy jihatdan yetuklikka erishsa, kitob o‘qib, o‘rganib, bilim olish orqali esa ma’nan komillikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘.B.Shoumarov, I.O.Haydarov, N.A.Sog‘inov, F.A.Akramova, G.Solihova, G.Niyozmetova. Oila psixologiyasi. “Sharq”, – Toshkent, 2008 yil.
2. Karimova, Vasila. "Oila psixologiyasi". – Toshkent, 2007 yil.
3. S.N.Djurayeva, N.S.Turdiyeva, A.I.Baxronova. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". – Buxoro, 2021 yil.
4. D.Abdullayeva, R.Yorqulov, N.Atabayev. "Oila psixologiyasi". – Toshkent. 2015 yil.
5. X.I.Ibragimov, U.A.Yo‘ldashev, X.Bobomirzayev. "Pedagogika va psixologiya". – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2009 yil.
6. F.I.Haydarov, N.I.Xalilova. "Umumiy psixologiya". – Toshkent, 2009 yil.